

Yangi Vatan, yagona xalq bo'lib,
hayot va kelajak yaratamiz!



IJODIY PARVOZ

O'ZBEKISTON
DAVLAT SAN'AT
VA MADANIYAT
INSTITUTINING
MA'NAVIY-MA'RIFIY,
ILMIY, IJTIMOY
GAZETASI

2026-yil avgust № 8 (147) dsmi.uz nashriyot@dsmi.uz t.me/dsmi_uz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING 35 YILLIGI



MUSTAQILLIK —

millat taqdiri, yangi O'zbekiston — buyuk kelajak poydevori

Mustaqillik... Bu so'z zamirida xalqning asriy orzulari, ozodlikka intilishi, milliy o'zligini anglash, o'z taqdirini o'zi belgilashdek ulug' va muqaddas tushunchalar mujassam. Mustaqillik — shunchaki davlatning siyosiy maqomi emas. U millatning o'zligini namoyon etishi, tarixini tiklashi, bugunini bunyod etishi va kelajagini o'z qo'llari bilan barpo etish huquqidir.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi arafasida ana shu buyuk tarixiy yo'lga nazar tashlar ekanmiz, bir haqiqatni chuqur anglaymiz: mustaqillik xalqimiz hayotini tubdan o'zgartirgan, milliy taraqqiyotimizga beqiyos imkoniyatlar ochib bergan tarixiy ne'matdir.

Davomi 2-betda

31-avgust — Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni

MUSTAQILLIK — OLIY NE'MAT:

JADIDLAR ORZUSIDAN
YANGI O'ZBEKISTON
TARAQQIYOTIGACHA

...Tarixiy xotira — milliy o'zlikning muhim tarkibiy qis-
midir. O'z tarixini bilgan xalq kelajagini ham aniqroq
tasavvur qila oladi. Shu sababli jadidlar merosini o'r-
ganish faqat tarixchilar yoki adabiyotshunoslarning
vazifasi emas. U yoshlarning dunyoqarashi, vatan-
parvarlik tuyg'usi va fuqarolik mas'uliyatini shakllan-
tirishda ham muhim tarbiyaviy vositadir.



Davomi 3-betda

Bugungi sonda:

JOYSNI ANGLASH

Badiiyat mohiri, serzavq hikoyachi, qalbi, o'yi betakror falsafiy-badiiy g'oyalar va tasvirlarga mushtaq Xurshid Do'stmuhammad "Joys" roman-essesida ong, tafakkur sarhadlaridan keng badiiy ijod sirlarini, qahramoni hayoti va ijodi misolida, tahlil-tadqiq etgan.

BIZ MUSTAQILLIKKA nima bera olyapmiz?

Vatan insondan "Menga nima berding?" deb so'ramaydi. Aksincha, xalqni og'ir vaziyatlarda boshini silab, yaxshi kunlarga yetaklaydi va har bir insonni bir kun o'ziga savol berishga undaydi: "men Vatanga nima berdim?"

O'shal damlar

"Sandadir", "Sochlaringda tun uyqusi", "Oq qush", "Shirinliging, shakarliging", "Yor bilan", "O'shal damlar" kabi qo'shiqlar ayniqsa manzur bo'lmoqda. Lekin shular orasida Yahyobekning "O'shal damlar" qo'shig'i juda maromiga yetkazilgan, desam mubolag'a bo'lmaydi.

IJTIMOY TARMOQLAR: MASHHURLIK POYGASI

Ijtimoiy tarmoqlar hayotimizni yengillashtirdi, biroq "like" ortidan quvish kabi odatlar uni murakkablashtiradi. Bu esa insonni asta-sekin o'zligidan uzoqlashtiradi. Eng to'g'ri yo'l esa raqamlar emas, mazmun ortidan quvishdir.

MUSTAQILLIK –

millat
taqdiri,
yangiO'zbekiston –
buyuk kelajak
poydevori

35



MO'MINMIRZO XOLMO'MINOV,
“Madaniyat va san'at menejmenti”
kafedrasi dotsenti,
Xalq ijodiyoti fakulteti yoshlar bilan
ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari

Mustaqillik yillarida madaniyat va san'at sohasida amalga oshirilgan ishlarning ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim. Madaniyat – jamiyatning ma'naviy qiyofasini belgilaydi. San'at esa inson qalbiga bevosita ta'sir etib, uni ezgulikka, go'zallikka va bunyodkorlikka chorlaydi.

Milliy musiqa, maqom, baxshichilik, xalq amaliy san'ati, teatr, kino, raqs va tasviriy san'at kabi yo'nalishlarning rivojlanishi xalqimizning boy madaniy merosini dunyoga tanitishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda madaniyat muassasalari oldida ham yangi vazifalar turibdi. Zamonaviy tomoshabinning ehtiyojini anglash, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, ijodkor yoshlarni qo'llab-quvvatlash, madaniy xizmatlar sifatini oshirish va milliy san'atni xalqaro maydonga olib chiqish – zamon talabi. Shu ma'noda, madaniyatga qilingan investitsiya inson tafakkuriga, millat ma'naviyatiga va jamiyat kelajagiga qilingan investitsiya hisoblanadi.

Mustaqillikni qo'lga kiritish qanchalik sharafl bo'lsa, uni asrab-avaylash va mustahkamlash undan-da katta mas'uliyatdir. Bugungi avlodga tinch va osoyishta hayot, zamonaviy ta'lim olish, erkin ijod qilish, kasb tanlash va o'z iste'dodini namoyon etish uchun yaratilayotgan imkoniyatlarning qadriga yetish zarur. Vatanga sadoqat faqat balandparvoz so'zlarda emas, kundalik mehnatda namoyon bo'ladi. O'z ishini sidqidildan bajarish, halol mehnat qilish, jamiyat rivojiga hissa qo'shish, yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish, milliy qadriyatlarni asrash, ularning barchasi Vatanga xizmatdir. Ayniqsa, bugungi murakkab va tez o'zgarayotgan dunyoda yoshlarni turli yot g'oyalar ta'siridan asrash, ularda mustahkam hayotiy pozitsiya va mafkuraviy immunitetni shakllantirish muhim vazifalardan biridir.

O'zbekiston mustaqilligining 35 yilligi bizni faqat o'tmishga nazar tashlashga emas, kelajak haqida chuqurroq o'ylashga ham chorlaydi. O'tgan yillar bizga katta tajriba berdi. Erishilgan yutuqlar bizga kuch va ishonch bag'ishlaydi. Oldimizdagi ulkan maqsadlar esa yanada katta mas'uliyat yuklaydi. Asosiy vazifa mustaqillik bergan imkoniyatlardan oqilona foydalanib, taraqqiyotning yangi bosqichiga dadil qadam tashlashdir. Buning uchun har bir sohada zamonaviy bilim, halol mehnat, tashabbuskorlik, innovatsion fikrlash va yuksak ma'naviyat zarur.

bu faqat yangi binolar, zamonaviy infratuzilma yoki texnologiyalar degani emas. Yangi O'zbekiston, eng avvalo, yangicha fikrlaydigan, o'z kelajagiga befarq bo'lmagan, bilimli, tashabbuskor va vatanparvar insonlar mamlakati.

Bugungi islohotlarning markazida inson manfaatlari va inson qadri turibdi. Ta'lim tizimining takomillashishi, yoshlar uchun yangi imkoniyatlarning yaratilishi, tadbirkorlik va bandlikni qo'llab-quvvatlash, zamonaviy infratuzilmaning rivojlanishi, madaniyat va san'atga e'tiborning kuchayishi, ularning barchasi xalqimizning munosib hayot kechirishi uchun xizmat qilmoqda. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida mamlakat taraqqiyoti faqat tabiiy boyliklar yoki iqtisodiy resurslar bilan emas, balki inson kapitali, bilim, innovatsiya va ijodiy salohiyat bilan belgilanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Yangi O'zbekistonning eng katta boyligi uning bilimga intilayotgan, yangilik yaratishga qodir yoshlaridir. Mustaqillikning 35 yilligi haqida so'z yuritganda, albatta, yoshlar masalasiga alohida to'xtalish lozim. Zotan, bugungi yoshlar ertangi O'zbekistonning bunyodkorlaridir. Yosh avlodning ta'lim olishi, kasb egallashi, ilm-fan bilan shug'ullanishi, sport va san'atga qiziqishi, xorijiy tillarni o'rganishi uchun keng imkoniyatlar yaratilayotgani mamlakatimiz kelajagiga qaratilgan uzoq muddatli investitsiyadir.

Yoshlarni shunchaki bilimli qilishning o'zi yetarli emas. Ularni Vatanga sadoqatli, milliy qadriyatlarga hurmatli, mustaqil fikrlaydigan va jamiyat oldidagi mas'uliyatini his qiladigan insonlar etib tarbiyalash ham muhim. Bugun biror yoshning qo'lida kitob, ilmiy loyiha, musiqa asbobi, rassomlik mo'yoqalami yoki zamonaviy texnologiya bo'lsa, Mustaqillik yaratgan imkoniyatlarning amaliy ifodasi hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, Mustaqillik – tariximizning eng buyuk yutug'i, bugunimizning tayanchi va kelajagimizning mustahkam poydevoridir. 35 yil davomida xalqimiz ulkan va mashaqqatli, ayni paytda sharafl taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Endilikda bu tarixiy yo'lni yangi marralar, yangi bunyodkorlik ishlari va yangi avlodning ezgu orzulari davom ettiradi. Bizning vazifamiz mustaqillikning qadrini anglash, uning ne'matlarini asrash, Vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish va kelajak avlodga yanada obod, farovon, ma'rifatli O'zbekistonni meros qoldirishdir. Zero, Mustaqillik – kechagi g'alabamiz emas, balki har kuni munosib yashashimiz, halol mehnatimiz va bunyodkorligimiz bilan mustahkamlab boradigan buyuk qadriyatdir.

← Boshlanishi 1- betda

1991-yil 31-avgust kuni xalqimiz tarixida abadiy muhrlanib qolgan sana ya'ni O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilindi. Bu qaror xalqimizning asrlar davomida shakllangan ozodlik va erkinlik haqidagi orzu-intilishlarining amaliy ifodasi bo'ldi.

Mustaqillikning dastlabki yillari mamlakatimiz uchun nihoyatda murakkab va mas'uliyatli davr edi. Yangi davlatning siyosiy, iqtisodiy va huquqiy asoslarini yaratish, milliy davlatchilik institutlarini shakllantirish, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish, xalqning ijtimoiy himoyasini ta'minlash kabi ulkan vazifalar kun tartibida turardi. Bu jarayonlarning barchasi xalqimizning sabr-toqati, fidoyiligi va bunyodkorlik salohiyati bilan amalga oshirildi. Bugun 35 yillik tarixga nazar tashlar ekanmiz, mustaqillik yillarini faqat sanalar va raqamlar bilan emas, balki insonlar hayotidagi o'zgarishlar, xalq tafakkuridagi yangilanishlar va milliy o'zlikning qayta tiklanishi bilan baholashimiz kerak. Har qanday xalqning haqiqiy mustaqilligi, avvalo, uning o'z tarixini, tilini, madaniyatini va milliy qadriyatlarini anglashidan boshlanadi.

Mustaqillik yillarida ajdodlarimizning boy ilmiy, ma'naviy va madaniy merosini o'rganishga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Asrlar davomida insoniyat tamadduniga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomalarimiz nomi va merosi xalqimizga qaytarildi.

Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari buyuk siymolarimizning ilmiy va ma'naviy merosi bugungi avlod uchun ham bebaho maktab vazifasini o'tamoqda.

Milliy qadriyatlarning tiklanishi xalqning o'zligiga bo'lgan ishonchini mustahkamladi. Ona tilimiz, milliy bayramlarimiz, urf-odat va an'analарimiz, milliy san'atimiz va xalq ijodiyoti yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Zero, o'z tarixini bilgan xalq o'z kelajagini dadil qura oladi. Bugungi kunda mamlakatimiz hayotida “Yangi O'zbekiston” g'oyasi alohida mazmun va ahamiyat kasb etmoqda. Yangi O'zbekiston –



MUSTAQILLIK – OLIY NE'MAT:

JADIDLAR ORZUSIDAN YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIGACHA

Tarixda shunday kunlar bo'ladiki, ular butun bir xalqning taqdirini o'zgartiradi. O'zbekiston uchun ana shunday buyuk tarixiy sana 1991-yil 31-avgust, davlat mustaqilligi e'lon qilingan kundur. Mustaqillik xalqimizga o'z taqdirini o'zi belgilash, milliy davlatchiligini mustahkamlash, tarixiy xotirasini tiklash va kelajagini mustaqil ravishda bunyod etish imkonini berdi. Shu sababli mustaqillikni oddiy siyosiy tushuncha sifatida emas, balki xalqimiz uchun eng oliy ne'matlardan biri sifatida baholash mumkin. Biroq mustaqillik g'oyasining ma'naviy ildizlari faqat XX asr oxiridagi voqealar bilan cheklanmaydi. Uning zahirida xalqimizning asrlar davomida shakllangan ozodlik, ilm, ma'rifat va taraqqiyot haqidagi orzu-intilishlari mujassam. Ayniqsa, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida faoliyat yuritgan jadidlar bu orzularni ma'rifat va milliy uyg'onish harakati darajasiga olib chiqdilar. Shu ma'noda, jadidlar merosini o'rganish – mustaqillikning tarixiy va ma'naviy ildizlarini chuqurroq anglash demakdir.

Jadidchilik Turkiston tarixidagi muhim ma'rifiy va ijtimoiy harakatlardan biri bo'lib, uning asosiy maqsadlaridan biri xalqni ilm-ma'rifatga chorlash, zamonaviy tafakkurni shakllantirish va milliy taraqqiyotga erishish edi. Jadidlar xalqning taraqqiyoti, avvalo, uning ma'rifatli bo'lishiga bog'liq ekanini angladilar. Shu sababli ular yangi usul maktablarini tashkil etdilar, darsliklar yozdilar, gazeta va jurnallar chiqardilar, teatr va adabiyot orqali jamiyat ongini uyg'otishga harakat qildilar. Ularning faoliyatida Vatan sevgisi oddiy hissiy tushuncha emas, balki xalq kelajagi uchun mas'uliyat sifatida namoyon bo'ldi.

Jadidlar uchun yurtni sevish, xalqni savodli qilish, farzandlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, milliy o'zlikni anglash va jamiyatni taraqqiyot sari boshlash edi. Jadidlar yashagan davrda Turkiston xalqi siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan murakkab sharoitda yashagan. Shunday vaziyatda ular milliy o'zlikni saqlash, xalqni ma'rifatli qilish va kelajak uchun musta-

qil tafakkurga ega avlodni tarbiyalashga intildilar. Ularning barcha qarashlarini bevosita bugungi mustaqillik tushunchasi bilan aynanlashtirish tarixiy jihatdan to'g'ri bo'lmashligi mumkin. Ammo ularning milliy uyg'onish, ma'rifat, taraqqiyot va xalqning o'z kelajagini o'zi belgilashi haqidagi g'oyalari keyingi milliy taraqqiyot jarayonlari uchun muhim ma'naviy zamin yaratganini ta'kidlash mumkin.

Jadidlar muammoni ko'rdilar va unga amaliy javob izladilar: Savodsizlikka qarshi maktab ochdilar, kitob yetishmasligini nashriyot tashkil etish va darslik yozish bilan yengishga harakat qildilar, axborot tanqisligiga qarshi gazeta chiqardilar. Jamiyatdagi illatlarni ko'rdilar – teatr va adabiyot orqali ularni muhokama qildilar. Mutaxassis yetishmasligini angladilar – yoshlarni xorijga yubordilar, siyosiy huquq cheklanganini ko'rdilar – muxtoriyat va islohot g'oyasini o'rta qo'yishga harakat qildilar.

Bugungi avlod oldidagi vazifalar esa boshqacha: ta'lim sifatini oshirish, ilm-fanni kuchaytirish, tex-

nologiyada mustaqillikka erishish, inson kapitalini yuksaltirish, milliy til va madaniyatni zamonaviy dunyo bilan uyg'unlashtirishdir.

Shu ma'noda "Yangi O'zbekiston" g'oyasi bilan jadidlar merosi o'rtasidagi eng mustahkam ko'priklar shiorlar emas, insonga va bilimga tayangan taraqqiyot falsafasi ekanligini chuqur his qilish hamda shunga munosib bo'lish g'oyasi mushtarak ekanligini anglashdir.

Bir so'z bilan aytganda, jadidlar bizga tayyor kelajak qoldirmadilar. Ular dunyo hamjamiyatidan o'rganish, o'zlikni yo'qotmaslik, ilmni qadrlash, yoshlarga ishonish, jamiyat dardini yashirmaslik va har bir muammoga amaliy yechim izlash kabi kelajakni qurishning yo'lini ko'rsatdilar.

1991-yilda O'zbekiston davlat mustaqilligining e'lon qilinishi bilan xalqimiz o'z taraqqiyot yo'lini mustaqil belgilash imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu nuqtayi nazardan, mustaqillikni jadidlarning ma'rifat va milliy uyg'onish yo'lidagi intilishlaridan uzilgan hodisa sifatida emas, balki xalqimizning uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonidagi muhim bosqichlardan biri sifatida anglash maqsadga muvofiqdir.

Mustaqillik – tarixiy xotirani tiklash imkoniyati. Mustaqillikning eng katta ma'naviy ne'matlaridan biri, xalqning o'z tarixiga o'z ko'zi bilan qarash imkoniyatidir. Mustaqillik yillarida jadidlar va ma'rifatparvarlarning hayoti, ilmiy va adabiy merosi qayta o'rganildi. Ularning nomi va asarlari xalqimizga qaytarildi. Bu jarayon milliy tarixiy xotirani tiklash va yosh avlodga ajdodlarga hur-

NILUFAR DO'STOVA,
"Kutubxona-axborot
faoliyati"
ta'lim yo'nalishi
3-bosqich talabasi

mat tuyg'usini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Zero, tarixiy xotira – milliy o'zlikning muhim tarkibiy qismidir. O'z tarixini bilgan xalq kelajagini ham aniqroq tasavvur qila oladi. Shu sababli jadidlar merosini o'rganish faqat tarixchilar yoki adabiyotshunoslarning vazifasi emas. U yoshlarning dunyoqarashi, vatanparvarlik tuyg'usi va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishda ham muhim tarbiyaviy vositadir.


Yurti qanday sevish kerak? Yurti sevish – ilm olishdir. Chunki bilimli avlod mamlakatning intellektual salohiyatini oshiradi. Yurti sevish – halol mehnat qilishdir. Har bir inson o'z kasbini mas'uliyat bilan bajarsa, bu mamlakat taraqqiyotiga qo'shilgan hissadir. Yurti sevish – tarixni bilishdir.

O'z tarixini bilmagan avlod milliy o'zligini to'liq anglay olmaydi. Yurti sevish – milliy qadriyatlarni asrashdir. Ona tiliga, adabiyotga, san'atga, urf-odat va madaniy merosga hurmat milliy o'zlikni mustahkamlaydi. Yurti sevish – uning kelajagi uchun mas'uliyatli bo'lishdir. Jamiyatdagi muammolarga befarq bo'lmashlik, ularning yechimini izlash va ijobiy tashabbus ko'rsatish haqiqiy fuqarolik pozitsiyasidir. Jadidlar ana shu tamoyillarning barchasini o'z faoliyatida namoyon etdilar.

Bugungi yosh avlod mustaqillikning tayyor holda berilgan ne'mat emas, balki tarixiy kurashlar, ajdodlarning orzu-intilishlari va xalqning mashaqqatli taraqqiyot yo'li natijasi ekanini anglashi zarur. Mustaqillikni asrash faqat davlat yoki alohida tashkilotlarning vazifasi emas. Bu har bir fuqaroning mas'uliyatidir. Vatan ozodligini birga asraylik!

JOYSNI ANGLASH

Badiiy ijodning sirli, ong va tafakkur sarhadlaridan keng, goho biror “izm” bilan o'lchash mushkul izlanishlar sohasi ekanini asoslashga hojat yo'q. Qalamkashlik zahmatidan jindek xabardor kishi bu sohani qismati sifatida e'tirof etishdan boshqa asos topolmaydi. Qismatni “qismati azal” deb atashlaridan u kimning tuhfası, amri ekanini anglash qiyin emas. Badiiy ijod Yaratganning “Bo'l” degan so'zidan yaralgan-da. Yaratganning hukmi – yaralganning qismati...



Badiiyat mohiri, serzavq hikoyachi, qalbi, o'yi betakror falsafiy-badiiy g'oyalar va tasvirlarga mushtaq Xurshid Do'stmuhammad “Joys” roman-essesida ong, tafakkur sarhadlaridan keng badiiy ijod sirlarini, qahramoni hayoti va ijodi misolida, tahlil-tadqiq etgan. Bu dastlabki urinish emas, ammo “Ajoyib kishilar hayoti” majmuasidan joy olishi mumkin izlanish mahsulidir.

Buyuk irland adibi Jeyms Joys tarjimaiy holini yozish qiyin emas, lekin uning badiiy olamini, anglash, tasvirlash va baholash mushkul. Joys XX asr boshlarida Yevropada boshlangan “intelektual revolyutsiya”ga oid barcha muvaffaqiyat va ziddiyatlarni o'zida mujassam etgan ijodkordir. U hayoti va fikrlash tarzi, Yevropani larzaga solayotgan marksizm va nigilizm, sotsializm va syurrealizm, traditsionalizm va modernizm, konstruktivizm va destruktivizm, moralizm va dadaizm, futurizm, texnitsizm, neoromantizm... kabi son-sanoqsiz, bir-biridan o'zishga shay oqimlar ta'sirida shakllandi. Roman-esseda bu oqimlar ta'siri ta'kidlanmaydi, Joysning o'ta kitobsevar bo'lgani, butun Yevropadan boshpana izlab yashagani meni shu fikrga olib keladi. Tinmay ko'chib, yon-atrofdan bezib va yon-atrofni bezdirib yashash, alam-u g'azablarini jilovlay olmaslik, do'st tutinib darrov undan yiroqlashish, badfe'llik, dilozorlik, qo'pollik, to'ng'lik, dimog'dorlik...Rassel unga “men uchratgan yosh yovvoyilar orasida eng yirtqichi ekan”, deb baho bergandi. Adib ta'rifiga ko'ra Jeyms birovning maslahatiga quloq soladigan odam emasdi...U jamiyatni o'zining dushmani, raqibi deb e'lon qiladi. Uni hech kim oldiga solib quvmayotgani bilan hisoblashmaydi, balki o'zini o'zi quvib solish va ko'ngilli ayiriliq kayfiyatini vujudga keltiradi, avj oldiradi. Axloqshunoslar uni qoralashi turgan gap, ammo adib undan adiblik mahoratini qidiradi. Adib yozadi: “Hayotda birdan bir najot – yozishda, ijodda degan aqidaga yopishib oladi, Yozish – kurash va yashash demakdir” degan shiorni boshi uzra ko'taradi. Ijodni hayot-mamot maqomida ulug'laydi. Yaxshiyamki ijod, yozish bor ekan, aks holda u berahm isyonkor bo'lardi yoki o'zini daryoga otardi. Yoki Nitsshedek aqldan ozib, telbaxonada o'larmidi...

Go'daklik paytida uyg'ongan taassurot, shakllangan xislat umr so'qmoqlarida mutlaq unut ketmaydi. Adib ta'rifiga ko'ra Joys “o'y odami, xayol odami” edi. O'y-xayolarga berilish unga zavq-u shavq, kishilar xatti-harakatlarini kuzatishga, ularni baholashga asos berardi. Shu asnodan ongiga, tasavvurlariga joylashganlarini qog'ozga tushirish, yozish bilan band bo'lardi. O'quvchi paytida shakllangan bu xislat Joysda badiiyatga, yozishga muhabbat uyg'otgani aniq. Ushbu ichki psixologik determinant bo'lg'usi barcha ijodkorlar hayotida muhim rol o'ynagan, ularda hayotiy maqsadni, idealni shakllantirgan. Qahramonning kollejdagi yozgan insholarida bo'lajak yozuvchining go'dakona tasavvurlardan mutlaq xoli bo'lmagan, romantik pafosdagi o'yilar bilan bezatilgan, shu bilan birga, qandaydir noodatiy, jindek isyonkorona, jindek zohidona va erkka xos o'jarona fikr-mulohazalari bitilgandi.

Mutaxassislar e'tirofiga ko'ra, har safar Joys insholari uchun kollej rahbariyatidan mukofot olganida ruhi erkinligiga yaqin mashg'ulot bilan shug'ullanayotganiga iqrar bo'lar, mukofot pullarini oilasiga, onasiga berayotganida esa buyuk ishlarga qodir, hatto insoniyatga kamolot yo'llarini ko'rsatayotgan najotkor sezardi o'zini. Bu ta'rif-u tavsif psixotahlil nuqtayi nazaridan juda muhim, chunki keyinchalik hayotiy maqsadiga, idealiga aylangan ushbu ichki psixologik determinant Joysda oilaviy qadriyatlarga sodiq qolishni shakllantirdi. Mudom muhtojlik, ish va osoyishtalik izlab shaharma-shahar, yurtma-yurt kezish, oilaviy mashmalar aksariyat adiblarni berahmlik va xiyonat yo'lga boshlagan, shuhrat topgan erkaklar atrofida esa “bokira go'zallik timsollari” bo'lgan ishratparast ayollar aylanib yurgan. Joys ham ushbu tuzoqlardan yiroq bo'lmagan, ammo unda oilaga, ayoliga sodiqlik instinkti mustahkam edi. Uning darbadarligiga chidagan oilasi sabr-toqat bobida Joysga ibrat edi.

Ong osti sarguzashtlari ko'pincha ishqiy-hissiy sarguzashtlardan unib chiqishini Z.Freydga ergashuvchi psixotahlilchilar ochiq e'tirof etadilar. Z.Freydning “libido” nazariyasi ishqiy-hissiy sarguzashtlar (go'dakning validasi ko'krigiga talpinishidan tortib to musavvirlar va haykalta-roshlarning ayol tanasidan nafosat timsoli izlaganiga)ga qurilganini eslash kifoya. Xurshid Do'stmuhammad qahramonini ushbu ishqiy-hissiy sarguzashtlardan xoli tasvirlashi mumkin emasdi. U yo'l-yo'lakay ikki-uch epizodni eslab o'tadi. Birinchisi, Joysning “jismaniy va ruhiy ulg'ayish o'rtasida olishuv kechayotgan” va “bolalikni tark etib kattalar safiga qo'shilmochi bo'lib turgan bir paytda” besoqollik kufriga duch keladi. Bu “Jeymsning bolalik olamiga kattalar dunyosida g'oyatda zavqli va sharmandali illat mavjud, degan tushunchani olib kiradi. O'takasi yorilayozdi”.

Ikkinchisi, o'n to'rt yoshida ipakday xushmuomala, shirino'sz ayol qo'ynida visol lazzatini totadi. Bu uyidagi “yoshgina cho'ri qiz bilan beg'ubor berkinmachoq, quvlashmachoq o'yinlarining ishqiy sarguzashtlarga aylanishiga ulanib ketadi”. Uchinchisi, Joysning shogirdi Amaliya Popperga platonik muhabbatidir.

Badiiyat, ayniqsa ong ostidan najot, mo'jiza, ketma-ket alamlarga, iztiroblarga duchor etsa-da, estetik quvonch baxsh keltiruvchi quvvat bo'lsa ham Joys kechinmalaridan, qahramon xarakteridan kelib chiqadigan, ixtiloflarni chetlab o'tmasligi zarur edi. Ushbu ixtiloflarsiz ong ostiga oid fikrlar shunchaki bayon, ta'kid bo'lib qoladi. Ong osti voqeligi ong osti voqeligini qayd etish uchun emas, balki ong ostidan ong, yangi, noodatiy fikr izlash uchundir. Demak, uch qatlam: 1) ong, 2) ong osti, 3) ong ostidagi ong. Ya'ni “men”, “men”ni anglovchi “men” “men”ning “men”i mavjud. Ijtimoiy falsafa birinchi qatlamdagi “men”ni, psixotahlil ikkinchi qatlamdagi “men”ni, uchinchi qatlamdagi “men”ni o'rganadigan soha ham, xodim ham yo'q. Balki u giperpsixooanaliz bo'lar... Xullas, ong osti voqeligini tahlil-tadqiq qilmoqchi bo'lgan ana shunday sirli, goho mavhum voqelikdan ratsional asos qidirishga majbur. Bu adibning yoki adabiyotshunosning vazifasi emas.

Yigirma ikki yoshida Joys Nora Barnaklga uylanadi va oilasiga sodiq bo'lishga ahd qiladi. Ahd boshqa, turmush mashaqqatlariga chidab, hirsiy-ishqiy sarguzashtlardan uzoq, tiyilib yashash boshqa. Bu borada, Xurshid Do'stmuhammad ba'zi bir holatlarga ishora qiladi, ammo ularni kengroq tasvirlashni lozim topmaydi. U ong osti impulslarini “libido”ga emas, balki badiiy ijod tomonga yo'naltiradi. Bu roman-esse talabiga muvofiqdir, biroq psixotahlilga to'g'ri kelmaydi. Kitob o'qish, yozish psixotahlil o'rganadigan, qiziqadigan ong osti voqeliklarimi? Ha, ayrim bir shaxslar u yoki bu narsani tabiiy-psixologik borlig'i sifatida ardoqlashi, jonini jabborga berib, telbalarcha uni himoya qilishi mumkin. Jeyms Joys shunday shaxsga o'xshab ketadi. Unda Z.Freyd, K.Yung nazarda tutgan ong osti fenomenining badiiy ijodga nima aloqasi bor? Jeyms Joys “Uliss” romanida qo'llagan uslub (agar uni uslub deyish mumkin bo'lsa), ya'ni mavhumlik, aralash-quralashlik, ongni chalg'ituvchi nomantiqiylik, mayda-chuydalar tasvirini badiiy ongga taalluqli deyish to'g'rimi? Chamasi biz ong ostidagi ongning ongsizligini hisobga olmay, uni ongga taalluqli voqelik sifatida talqin etamiz. Ong ostidagi ong ongga moyil bo'lishi ham mumkin, uning ziddi bo'lishi ham mumkin. Xurshid Do'stmuhammad keyingisiga esdan chiqarib qo'yadi, natijada u ong ostini ham, uning ostidagi ongning zid tomonini ham badiiy ijodga taalluqli, ijobiy narsa sifatida taqdim etadi. Ming vahmki, psixotahlil asoschilari Z.Freyd va K.Yung ong va ong ostini tadqiq qilganlar, ammo ular uchinchi qatlamni, ya'ni ong ostidagi ongni nazarda tutmaydilar. Ular tirik paytda psixotahlil hozirgi davrdagidek chuqur emasdi.

Xurshid aka 37 mavzusini “Uliss”ni anglash deb atagan. Aslida roman-esse Joysni, Joys fenomenini anglashdir. “Uslub - muallifning o'zi” degan pastulatdan kelib chiqib, Joys uslubi haqida “unda tugal fikr, tugal xulosa yo'q, u hayoti davomida nimani ko'rgan, bilgan, eshitgan bo'lsa hammasini asar syujetiga tortaveradi. Muallif uchun nokerak voqea yo'q, nokerak so'z yo'q, behuda o'y-xayol, kechinma yo'q”, “u o'ziga qadar jahon adabiyotida uchraydigan birorta tasvir uslubidan qanoatlanmagan. Qanoatlanagan taqdirdan ham qabul qilmagan. Hech bir uslubni tan olmagan...yangicha tasvir uslubini topish, kashf etish yo'lidagi mashaqqatlardan tap tortmagan, jahon xalqlari adabiyoti butkul boshqa o'zanga ko'chmog'i zarur deb hisoblagan” degan xulosani bildiradi. Ha, “Uliss”dagi badiiy uslubni topish oson emas. Aralash-quralash voqealar, mantiqsiz lavhalar, ongni chalg'ituvchi tasvirlar, iboralar, so'zlar...uch bet o'qimay bezillaysiz. Go'dak-musavvirning turli ranglarni chaplab tashlagan, anglamagan, hissiyotga erk bergan “qoralamalari” tuyuladi ular. Adabiyotshunoslar, shu jumladan, o'z adibimiz va adabiyotshunosimiz ham, ulug'la-



VIKTOR ALIMASOV,
falsafa fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

yotgan Joysda nima bor? G'ayrimantiqiy lavhalar va “so'z o'yinlari”dan iborat “Uliss” nimasi bilan yangicha uslubdagi asar? degan savollar tug'iladi. Badiiy asar yangicha uslub yaratish uchun bor tajribalardan voz kechishga qaratiladimi? Badiiy izlanishlar jarayonida adib o'quvchisini nazarda tutmasligi mumkin, lekin bu oniy xayoldir. Bunday oniy va o'tkinchi xayollar buyuk badiiy kashfiyot darajasida ulug'lanishi kerakmi? Yo'q, men ijod erkinligiga qarshi emasman, ba'zan adibning o'zi uchun ham yozishidan, ba'zan oniy kechinmalar kashfiyotlarga turki berishidan xabardorman. Lekin ijodkorning jamiyat va kelajak, ya'ni farzandlari, nevaralari oldidagi mas'ulligini unutmaymiz. Badiiy so'z uchun yoki yangicha uslub uchun emas, balki insonni yanada insoniylashtirish uchundir. “So'z ustalari, siz kim bilansiz?” degan da'vat bugun qayta kun tartibga chiqmoqda.

E'tibor bering, bugun badiiy ijod sohasida mistika va irratsionalga berilish avj olib bormoqda. O'zbek adabiyoti va san'ati mistifikatsiyalashib, irratsionallashib bormoqda. Ong osti ularga ochiq yo'ldir. Ong ostiga murojaat adiblarimiz uchun yangilik, ong ostidagi ongni, fikrni (uchinchi qatlam) izlash va ifodalash imkonini. Bu badiiy ongni, didni noziklashtiradi, har bir ko'rinish, so'z va istakdan yanada chuqurroq, salmoqliroq va mag'zliroq ma'no topishga yetaklaydi; inson ruhini chuqur, intensiv o'rganish va shu asosda badiiy kashfiyotlar qilish imkonini beradi.

“Ong oqimi”ning yuksak va betakror namunasini yaratgan, bu borada uloqni olib ketgan va hozirga qadar hech kimga berib qo'ymagan adibning nomini takrorlab qo'ya qolamiz - bu nom Jeyms Joys!“. Mazkur e'tirof o'zbek adabiyotiga tanqidiy nazar tashlashga undaydi. “Uliss”ni o'qib, shunda uning hazmini oshirish, ko'paytirish uchun, undan mumkin qadar ko'proq zavq tuyish uchun bisotimizdagi adabiy axborotimiz, adabiy savodxonligimiz qancha ko'p bo'lsa, shuncha oz! Tafakkurimiz, tasavvurimiz, xotiramiz xazinasidagi adabiy bisotimiz-boyligimiz juda-juda g'arib va hatto nochor ekanligini mardonavor tan olish Jeyms Joys asarlari mutolaasiga kirishgan har qanday kitobxon yuzma-yuz keladigan achchiq haqiqatdir. Hurmatli adibimiz ehtirosqa ortiqcha berilib ketibdi, shekilli. O'zbek badiiy tafakkuridagi, xazinasidagi “bisotimiz-boyligimiz juda-juda g'arib va hatto nochor” degan g'arb modernizmidan saboq olishga undovchi da'vat e'tirozlar uyg'otadi. O'zbek adabiyoti “bisoti-boyligi” da jahon badiiy tafakkuridan joy olgan asarlar yo'qmi? Nima, hamma tushunarsizlik, mantiqsizlik, aralash-quralash, bema'nilik va uslubsizlik yo'sinida ijod qilishi kerakmi? Achchiq bo'lsa ham aytay, “ong oqimlari” bayrog'i ostida ongni chalg'ituvchi, mujmal va, oxir-oqibatda irodasizlikka, ruhiy tushkunlikka yetaklovchi asar bizga namuna bo'lolmaydi.

Jamiyatimiz taraqqiyoti uchun aql-u idrokni rivojlantirishga, intellektual kuchlarni ko'paytirishga undovchi g'oyalar, asarlar, obrazlar kerak. Ushbu obyektiv talabni Xurshid aka ham biladi, bunga ishonchim komil. Ammo Joysning hayoti va ijodi tafsilotlari, ayniqsa “Uliss” asari ta'sirida (balki Joys ijodi tahlil-tadqiqotchilari tavsifi ta'sirida) unda yuqoridagi tanqidiy mulohazalar uyg'ongandir. Men barcha Joysdek izlanishi, “Uliss”dek asar yozishi kerak, deb hisoblamayman. Milliy adabiy jarayonlarni, “bisotimiz”ni ular bilan mezonlash ham noto'g'ri. Joysni anglash murakkab, “Uliss”dagi ong oqimlariga taalluqli tasvirlardan ratsional izlash benaf. Bunday nostandart, noratsional voqelikning badiiy ijod sohasida uchray turgani yaxshi, ammo u jahon badiiy tafakkuriga ham, milliy adabiyotlar ravnaqiga ham ibrat, namuna bo'lolmaydi. Xurshid Do'stmuhammad o'zbek kitobxonini ana shunday baholanishi qiyin, murakkab va beadad bahstlab ijodkor hayoti va ijodi bilan tanishtirishga ahd qilgan ekan, Unga va kitobi “Joys”ga omadlar tilashimiz kerak. Ong va ong osti oqimlari tagida javohirlar ko'p, ammo-lekin inson qalbini, hayotini go'zal qilish uchun izlanish ulardan ham serob gavhar, faxrlidir.

"YAGONA VATAN, YAGONA XALQ B'OLIB, YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!"

g'oyasining ommaviy tomoshalardagi badiiy ifodasi

ASLIDDIN UTAYEV,
"Dramatik teatr va
kino san'ati" kafedrası
dotsenti v.b.

Mustaqillik yillarida milliy bayramlar va ommaviy tomoshalar xalqimizning ma'naviy hayotida markaziy o'rin egallab, milliy o'zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda qudratli vositaga aylandi. Bugungi kunda "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" degan shior ommaviy tadbirlarning nafaqat mazmunini, balki badiiy tuzilishini ham belgilab bermoqda. Yangi O'zbekiston sharoitida tashkil etilayotgan bayram tomoshalari xalqni bir maqsad va bir mafkura yo'lida birlashtiruvchi ma'naviy-ma'rifiy minbarga aylandi.

Ommaviy tomoshalar rejissurasida har bir sahnaviy harakat muallifning "oliy maqsad"ga bo'ysundiriladi. "Yagona Vatan" tushunchasi rejissura tilida mamlakatning tarixiy o'tmishi, bugungi yutuqlari va istiqbolli

kelajagini yagona kompozitsion zanjirga bog'lashni taqozo etadi. Manbalarga ko'ra, ommaviy bayramlarning ommabopligi uning chuqur ijtimoiy-psixologik ildizlariga ega ekanligi bilan belgilanadi. Rejissyor tomosha

ssenariysi ustida ishlar ekan, "yagona xalq" obrazini yaratishda turli viloyatlarning folklor jamoalari, sportchilar va san'at ustalarining chiqishlarini yagona "sintetik asar" sifatida montaj qiladi. Masalan, Mustaqillik va Navro'z shodiyonalaridagi blok-epizodlar ketma-ketligi (bolalar, sport, milliy-folklor, estrada bloklari) xalqimizning turli qatlamlari bir maqsad yo'lida birlashganini ramziy ifodalaydi.

Ochiq maydonlarda va stadionlarda o'tkaziladigan tomoshalarda matnning o'rnini plastik metaforalar va audio-vizual obrazlar tizimi egallaydi. "Yagona xalq" g'oyasi maydondagi minglab ishtirokchilarning sinxron harakatlari, ya'ni "jonli dekoratsiya" vositasida gavdalantiriladi. Bu borada "jonli ekran" (badiiy fon) alohida ahamiyatga ega. Minglab ishtirokchilar qo'llaridagi rangli planshet va bayroqchalar yordamida maydonda O'zbekiston xaritasi, davlat bayrog'i yoki baxt timsoli bo'lgan Humo qushi tasvirlarini hosil qiladilar. Bunday vizual yechimlar tomoshabin ongida "Yagona Vatan" tuyg'usini bevosita his qilish imkonini beradi.

Zamonaviy ommaviy tomoshalar ssenografiyasi jihatdan yangi bos-

qichga ko'tarildi. Endilikda an'anaviy statik dekoratsiyalar o'rnini transformat-siyalanuvchi konstruksiyalar va yuqori texnologik vositalar egallamoqda.

LED ekranlar va videoproeksiya: Ulkan ekranlarda namoyish etilayotgan "Yangi hayot" manzaralari – yangilanayotgan shaharlar, bunyodkorlik ishlari va baxtiyor insonlar siymosi tomoshaning g'oyaviy mazmunini boyitadi.

Dron-shoular va lazer effektlari: Masalan, Namangandagi "Yoshlar festivali"da qo'l-lanilgan dronlar va zamonaviy chiroqlar "kelajak yaratamiz" g'oyasini fazoviy va texnologik jihatdan ifodalashga xizmat qilgan. Bunday texnologik yechimlar tarixiy obidalar (Registon yoki Qo'qon o'rdasi) fonida amalga oshirilganda, "tarixiy etnografiyasi epos muhiti" badiiy sintezi vujudga keladi.

Yangi hayotni barpo etishda ajdodlar merosiga tayanish rejissuraning asosiy tamoyillaridan biridir. Ommaviy tomoshalarda Amir Temur, Mirzo Ulug'bek kabi buyuk siymolarning sahnada paydo bo'lishi va ularning "Jahonni faqat qilich bilan emas, aql va adolat bilan birlashtirmoq kerak" degan xitoblari bugungi "yagona xalq" g'oyasiga tarixiy asos beradi. Bu esa, yosh avlodga "Uchinchi Renessans" poydevorini yaratishga bo'lgan intilishni kuchaytiradi.



BIZ MUSTAQILLIKKA nima bera olyapmiz?

Inson hayotida shunday ne'matlar borki, ularning qadrini faqat yo'qotish xavfi oldida emas, balki ular uchun qancha ajdodlar harakatlarini uqib anglagandagina chuqurroq his etadi. Mustaqillik ham ana shunday bebaho qadriyatdir. U millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi, o'zligini anglash, o'z kelajagini begona iroda emas, o'z tafakkuri va SALOHİYATI bilan bunyod etish imkoniyatidir. Shu ma'noda, O'zbekiston mustaqilligining 35 yilligi – biz uchun shunchaki yubiley emas, balki o'tgan yo'lga nazar tashlab, bugunning mohiyatini anglash va kelajak oldidagi mas'uliyatimizni yanada teranroq his etish fursatidir.

Men "Vatan" degan so'zni eshitganimda, ko'z oldimga inson qalbining eng chuqur qatlamlarida yashaydigan, so'z bilan to'liq ifodalash mushkul bo'lgan bir tuyg'u sifatida tasavvur qilaman. Zero, Vatan – tug'ilgan joyning nomigina emas, balki ona tilimiz, ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy meros, ota-onamizning duosi, kelajakka bo'lgan ishonchimizda, bolaligimiz xotiralarida mujassamdir. Vatan insondan "Menga nima berding?" deb so'ramaydi. Aksincha, xalqni og'ir vaziyatlarda boshini silab, yaxshi kunlarga yetaklaydi va har bir insonni bir kun o'ziga savol berishga undaydi: "men Vatanga nima berdim?"

Mustaqillik bizga aynan mana shu savolni beradigan ruhiy va ma'naviy makonni yaratdi. Endi biz o'z tariximizni o'z nigohimiz bilan anglash, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, ilm-fan va tafakkur orqali dunyoda munosib o'rin egallash imkoniyatiga egamiz. Shuning uchun ham istiqlolning mazmuni faqat ozod hudud yoki mustaqil davlat timsolida emas, balki insonning o'zligini anglashida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston tarixiga nazar tashlasak, bu zamin hech qachon oddiy bir makon bo'lmaganini anglaymiz. Bu tuproqdan buyuk tafakkur egalari, ilm ahli, davlat arboblari, mutafakkirlar va ma'rifatparvarlar yetishib chiqqan. Ularning merosi bizga shuni anglatadiki, xalqning buyukligi faqat uning qadimiyligi bilan emas, balki o'z tarixidan kuch olib, kelajakni bunyod eta olish salohiyati bilan belgilanadi.

Bugun biz ajdodlar nomini faxr bilan tilga olamiz. Ammo ajdodlar bilan faxrlanishning eng munosib shakli – ularning nomini takrorlash emas, balki ular boshlab ketgan ezgu intilishlarni davom ettirishdir. Agar bobolarimiz osmon sirlarini o'rganishga intilgan bo'lsa, biz ilmning yanada murakkab ufqlarini zabt etishimiz, agar ular ma'rifatni ulug'lagan bo'lsa, biz jaholatga

qarshi bilim bilan kurashishimiz, agar ular yurt obodligini orzu qilgan bo'lsa, biz shu orzuni zamonaviy taraqqiyot bilan uyg'unlashtirishimiz kerak. Mening fikrimcha, millatning haqiqiy kelajagi yoshlarining qalbida boshlanadi. Chunki bugun maktab partasida o'tirgan bola ertaga mamlakatning taqdiriga daxldor qarorlarni qabul qiladigan inson bo'lishi mumkin. Bugun bir kitobni varaqlayotgan qo'l ertaga ilmiy kashfiyot yaratishi, bugun kichik bir orzu bilan yashayotgan qalb ertaga yurt nomini dunyoga tanitishi mumkin. Shuning uchun yosh avlodga berilayotgan ta'lim, tarbiya va imkoniyatlar aslida kelajakka berilayotgan sarmoyadir.

Vatanparvarlik faqat bayram kunlari ko'ksiga qo'l qo'yib, balandparvoz so'zlarni aytish emas. Vatanparvarlik – hech kim ko'rmayotgan paytda ham halol bo'lish, o'qishga dangasalik qilmaslik, o'z kasbini vijdonan bajarish, atrof-dagilarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, yurt tabiatini asrash, ona tiliga ehtirom ko'rsatish, jamiyatdagi muammolarga befarq bo'lmaslikdir. Chunki ulkan davlatlar faqat ulkan binolar bilan emas, ulkan mas'uliyatga ega insonlar bilan barpo etiladi. Bugun Mustaqillikning 35 yilligi haqida o'ylar ekanmiz, ortda qolgan yillarni faqat tarix sifatida emas, bizga berilgan saboq sifatida ham ko'rishimiz kerak. Zero, tarixning eng katta hikmati – kechagi kunni ertangi kun uchun xulosa chiqarishdir.

Bizga tinch osmon, mustaqil davlat, ona tilimiz, milliy qadriyatlarimiz va kelajak sari intilish imkoniyati berildi. Endi navbat bizniki. Bizning vazifamiz – bu imkoniyatlarni oddiy qulaylik sifatida qabul qilmasdan, ularni ulkan natijalarga aylantirishdir. Chunki Vatan bizga ota-bobolarimizdan qolgan merosgina emas, u kelajak avlodga topshiriladigan muqaddas omonatdir.

Shu bois, men Mustaqillikning 35 yilligini nafaqat bayram sifatida, qalbimizdagi bir va'dani yangilash kuni



MUSLIMA RAHMANOVA,
"San'at jurnalistikasi" ta'lim yo'nalishi
3-bosqich talabasi

sifatida qabul qilaman. Men bu yurtida tug'ilganimni tasodif emas, katta mas'uliyat deb bilaman. Zotan, Vatan menga ismimdan ham oldin berilgan eng ulug' nomni berdi, ya'ni O'zbekiston farzandi degan nomni.

Agar bir kun kelib mening bilimim, mehnatim yoki halol xizmatim shu yurtning taraqqiyotiga zarracha bo'lsa-da naf keltirsa, men o'zimni baxtli inson deb bilaman. Chunki insonning hayotidagi eng katta sharaf – uning nomi emas, ortidan qoladigan ezgu izidir. Ushbu shodiyona kun bizga bir haqiqatni yana bir bor eslatadi: ozodlik bizga berilgan imkoniyat bo'lsa, uni buyuk kelajakka aylantirish – bizning burchimizdir. Zero, Vatan bizdan faqat uni sevishtirish emas, unga munosib bo'lishni ham kutadi. Mustaqilligimizning 35 yilligi muborak bo'lsin! Yuragi O'zbekiston deb urgan har bir insonning orzusi ro'yobga chiqsin. Osmonimiz tinch, bayrog'imiz baland, kelajagimiz esa bugun tasavvur qilganimizdan ham buyuk bo'lsin!



DILNOZA ADILOVA,
“San’at va madaniyat menejmenti”
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

YAGONA VATAN BU

Vatanning bag’ri keng, tuprog’i bitta,
Yuz yillik orzular ushalmoqdadir.
Ildizlari teran muqaddas zamin,
Yangi hayot sari yuksalmoqdadir!

Guvohmiz har kungi o’zgarishlarga,
Har yangi kunimiz – bir doston, bir dars.
Islohot shiddati har bir qadamda,
Uyg’oq qalblarimiz olmoqda nafas!

Yelkani yelkaga qo’ygan ellarmiz,
Birlik bor joyda bor hamisha qut, baxt.
Kelajak poydevorin qo’ymoqdamiz biz,
Ziyo qurollari qo’limizda taxt!

Yagona Vatan bu, yagona bir xalq,
Yangi bir kelajak yaratmoq – maqsad!
Bu yo’lda har yurak bir olov, chaqmoq,
Ertangi kun uchun bugun – omonat!



MARJONA XOLTOYEVA,
“San’at jurnalistikasi” ta’lim
yo’nalishi 2-bosqich talabasi

YANGI O’ZBEKISTON

Bizlar katta yo’lga chiqqanmiz dadil,
Qaddimiz mag’rurdir, tik boshlarimiz.
Bo’rondek yeladi tomirda shiddat,
Ahdi qat’iy yurtning alp yoshlarimiz.

Bizga umid bog’lar hur O’zbekiston,
Qo’llaydi bizlarni barcha sohada.
Yangi vatanimiz zarvaraqlarin,
Yozamiz poytaxtda, vodi, vohada.

Kimdir musiqaga bo’lgan chin oshno,
Kimdir sportsevar, kuchli, bahodir.
Ilm-u fan rivoji bizlarga yo’ldosh,
Yangi yoshlar bugun har ishga qodir.

Onajon, jonajon, jon O’zbekiston,
Bizlarga hamisha, hamisha ishon.



ELYOR NAZAROV,
“Madaniyat va san’at muassasalari
faoliyatini tashkil etish hamda
boshqarish” ta’lim yo’nalishi (sirtqi)
5-bosqich talabasi

ONAM KABI MEHRIBONIM YO’Q!

Poyi jannat, duosi qutlug’,
Borligi baxt, ming bora qulluq,
Sakkiz milliard inson ichida,
Onam kabi mehribonim yo’q!

Sinov bersa, beshafqat hayot,
Yor-u do’stdan topmadim najot,
Dardlarimga malham bo’lgan zot,
Onam kabi mehribonim yo’q!

Mushtiparim, g’amimga sovchi,
Aybimga u tovon to’lovchi,
Har soniya meni o’ylovchi,
Onam kabi mehribonim yo’q!

Ona bo’lib mendek beboshga,
To’lib ketgan ko’zlari yoshga,
O’n sakkiz ming olamda boshqa,
Onam kabi mehribonim yo’q!

Azob ko’rib, hurmat ko’rmagan,
Himmatini qimmat bilmagan,
Sevgisini minnat qilmagan,
Onam kabi mehribonim yo’q!

Vafo qilmas, makkor sanamlar,
Yuragimga solgan alamlar,
Eshiting, ey aziz odamlar,
Onam kabi mehribonim yo’q!

Shodlik quchsin har bir onini,
Men farishta atay nomini,
Alloh omon saqla jonini,
Onam kabi mehribonim yo’q!



QUVONDIQ YUSUPOV,
“San’at jurnalistikasi”
ta’lim yo’nalishi
3-bosqich talabasi



MUNIRA RAXIMOVA,
“Kutubxona-axborot faoliyati”
ta’lim yo’nalishi
bitiruvchisi

VATANIM

Har lahzada sog’inganim,
Onajonimsan Vatan.
Yo’q kunimda yaranan,
Otajonimsan Vatan.

Senda ko’rdim osmonlarni,
Oy, yulduzlar bezagan.
Senda ko’rdim tuproqlarni,
Oltin, zarga belangan.

Senda ko’rdim daholarni,
Mard, jasur, zakolarni.
Bugun dunyo tan olgan,
Jadidchi bobolarni.

Sen o’rgatding otam bo’lib,
Ilm va ma’rifatni.
Sen o’rgatding onam bo’lib,
Mehr va saxovatni.

Or-nomusli o’zbeklaring,
Vatan g’amini yerlar.
Ma’rifatli ayollarning,
Millat sha’nini o’ylar.

Sharof bobolarimdan,
Duo olgan qizingman.
Hamid Olimjonga chin,
Singil bo’lib qolganman.

Olamning jannatisan,
Nurli bo’shtonim Vatan.
Jahon ichra yagona,
Obod uyimsan Vatan.



DUNYO

Ko’hna dunyo ishidan,
O’yga cho’mib qolaman.
Qiyayverma, ey hayot,
Ko’ngli siniq bolaman.

Buncha savdo solasan,
Yolg’izgina boshimga.
Sitamlar to’g’ri kelmas,
Bu yigirma yoshimga.

Qaro kunlar oxirin,
Ko’rolmadim, ey hayot.
Hali yoshlik gashtini,
Surolmadim, ey hayot.

Vafoying yo’q hech kimga,
Bag’ring toshdan bo’lganmi?
Ko’ksingdagi daryolar,
Ko’zyoshlardan to’lganmi?

Barchasiga chidayman,
Mayli, ko’ksim tilib o’y.
Mendan quvnoq bolalik,
Qarzing qoldi, bilib qo’y!



O'shal damlar

“O'shal damlar”ni maromiga yetkazib ijro etilgan qo'shiq deb hisoblayman...”, – deydi shoir-dramaturg Farid Usmon

Qahramonimiz Andijonda tug'ilgan. Shahardagi pedagogika institutini bitirgan. “Yoshlik g'azallari”, “Navosiz navo”, “Ruh bulbuli”, “Jon qushi”, “Yangi oy”, “Vaqtichog'lik gullari”, “Meni sev”, “G'ildirakli uy”, “Hayot va xayol”, “Topganlarim” kabi bir necha kitoblari nashr etilgan. “Do'stlik” ordeni sohibi.

– Ustoz, 80 yil bir lahzada o'tib ketdi, deysiz-u, ammo u katta bir davrni o'zida qamrab olgan. Hayot past-balandliklardan iborat. Umringiz davomidagi eng baland, eng qadrli cho'qqini eslasangiz kerak?

– Albatta. Bunday cho'qqilar hayotimda, ijodimda bir necha bor bo'lgan va ular doim yodimda. O'rta maktabni tamomlab, pedagogika institutining filologiya fakultetiga kirish imtihonlaridan o'tgach, talabalik guvohnomasiga ega bo'lganim, tahsil olgan kunlarimni umrimning eng qadrli damlari deb bilaman. Bizlarga o'sha davrning katta olimlari – Xoshimjon Razzoqov, Faxriddin Isoqov, Nabi Qobulov, Vosid Sa'dulla kabi tilshunos va adabiyotshunos olimlar saboq bergan. Ijodiy muhitda G'anijon Abdullayev, Ulfat kabi taniqli shoir va mutafakkirlar bizga ta'sir o'tkazishgan.

– Talabalik yillaringizga qadar she'r yozarmidingiz?

– Yozganman. Maktabda til va adabiyot o'qituvchimiz Isomiddin Zokirov chinakam professional pedagog edi. U bizga mumtoz adabiyot haqida atroflicha bilim berishga harakat qilardi. O'sha yillari hazrat Navoiyning ko'p g'azallarini yod olganman. Umuman Furqat, Zavqiy, Muqimiy, Mashrab kabi klassik shoirlar ijodiga qiziqib qolganman. O'zim ularga taqlid qilib xom she'rlar yozganman. Aslini olganda har bir shoir uch bosqichni boshidan o'tkazadi. Dastlab yetuk ijodkorlarga taqlid qiladi. Keyingi bosqichda o'z ijodiy yo'lini qidiradi, so'ngra puxta she'rlar yoza boshlaydi. O'rta maktabda o'qib yurgan chog'larimdagi she'rlarim yetuk ijodkorlarga taqlid qilishdan iborat edi.

– Ommaviy axborot vositalarida dastlab qaysi she'ringiz chop etilgan?

– Mumtoz adabiyotga qiziqishim kuchliligi uchun aruz vaznida g'azallar yozishni mashq qilardim. Institutimiz devoriy gazetasida “Dilbarim, yodingda tut...” deya boshlanadigan g'azalimning o'rin olgani hozirgiday yodimda. Vaholanki kursdoshlarim orasida keyinchalik mashhur ijodkorlar bo'lib tanilgan Halima Qoraboyeva, Mukarrama Murodova, Usmonjon Shukurov, Mirzakarim Pirmatov kabi iqtidorli yoshlar bor edi. Shu o'rinda katta adabiyot sahnasida tanilishimga daxldor bo'lgan taniqli jurnalist va yozuvchi Mirzakarim Pirmatovni alohida tilga olmoqchiman.

1966-yili Erkin Vohidovning bir turkum g'azallari “Sharq Yulduzi” jurnalida bosilib chiqqach, mamlakatimizda g'azal janriga bo'lgan qiziqish ortib ketdi. Kursdoshim Mirzakarim “Yosh leninchi” respublika gazetasi tahririyatida xodim bo'lib ishlardi. U menga “– Sen ham aruzda yozasan. G'azallaringni olib kel, gazetamizda e'lon qilamiz”, – deb qoldi. Oradan hech qancha vaqt o'tmay yoshlar gazetasida men haqimda “Oq yo'l, Farid!” rukni ostida she'rlarim chop etildi. Keyinchalik u meni o'sha paytda “Yosh gvardiya” nashriyotining bosh muharriri, ulug' shoir Erkin Vohidov bilan uchrashtirdi.

– Erkin Vohidov sizga ustozlik qilganini bilamiz. Ana shu uchrashuv haqida to'xtalsangiz.

– Erkin aka g'azallarimni o'qib, qoniqish hosil qildi. Qo'lga qalam olib tuzatishlar kiritdi, kamchiliklarini

tushuntirib, ularni tahlil qilish zarurligi haqida maslahatlar berdi. She'rlarim ancha xom ekanini angladim. Ustoz belgilagan kamchiliklarni to'g'rilab, yarim yil o'tgach, Toshkentga olib bordim. Erkin aka g'azallarimdan o'ntasini tanlab oldi va “G'afur G'ulom” nashriyotida tayyorlanayotgan “Yoshlik” “bayozi”ga tavsiya qildi. Tanlangan she'rlarimning barchasi bayozda chop etilishi o'zimga bo'lgan ishonchimni mustahkamladi. Keyinchalik ham ustozning o'g'itlari ijodkor sifatida shakllanishimda muhim omil bo'ldi.

– Moskvadagi M.Gorkiy nomli ikki yillik adabiyot kursida tahsil ko'rganingiz ham ijodingizga ijobiy ta'sir o'tkazgan bo'lsa kerak?

– Albatta. Adabiyotga faqat O'zbekiston emas, jahon miqyosida qaray boshladim. Shekspir, Gyote, Pushkin, Tolstoy, Balzak, Tagor, Heminguey, Chexov, Mopassan, Sholoxov kabi jahon adabiyoti ustunlarini qaytadan kashf etdim. Moskvada tahsil ko'rayotganimda Chingiz Aytmatov bilan uchrashish, suhbatlashish sharafiga muyassar bo'lganman.

– Qiziq, bu qanday sodir bo'lgandi?

– Tarix fanlari nomzodi andijonlik Pirimqul aka Moskvada katta muammoga duch kelgani, yuqori tashkilotlarga arz qilaverib charchagani, endi najot faqat Chingiz Aytmatov bilan uchrashishda qolganini aytdi. Jahonga mashhur yozuvchini topish va ularni uchrashtirish mening zimnamga yuklatildi. Ertasi kuni baxtli tasodif tufayli Chingiz og'ani topdim va u zot muammoni hal etdi. Esimda biz masalani unga rus tilida tushuntirishga urinayotganimizda, – O'zbek tilida gapiravering, – dedi kulumsirab Chingiz og'a o'qishlarim, ijodim haqida so'rab, dalda berdi. U haqda o'ylaganimda Hazrati Xizr alayhissalom yodimga keladi. Parvardigori Egam o'zi odamlarga tuhfa etgan ana shunday ulug'lardan biri sifatida eslayman. U kishidagi soddalik, odamni bir lahzada maftun qilib oluvchi samimiylilik meni lol qoldirgan.

– “Umid gulzori”, “Navsiz navo”, “Qadr kechasi” “Ul qaro ko'z bo'lmas”, “Jon qushi” kabi lirik she'rlar serjilo g'azallaringiz jamlangan kitoblar mushtariylar uchun chinakam sovg'a bo'lgandi...

– Hayot bizni yashashga o'rgatsa, ustozlar bizlarga g'amxo'r bo'lishdi. Ancha-muncha ijod namunalarimiz nashr etilishi bahonasida poytaxt adabiy jarayonida talay do'stlar orttirdim. Ularni nomma-nom aytish kerak bo'lsa, ancha qog'oz to'ldirishingizga to'g'ri keladi. Intilishlarim zoye ketmadi. Respublika va viloyat gazetalari hamda jurnallarida chop etilgan qator she'rlarim ularning mahsulidir.

– Mustaqillik yillari ijodingiz yanada yuksaldi. Poytaxtning nufuzli nashriyotlarida “Husn devoni”, “Jon qushi”, “Ruh bulbuli” kabi she'r va g'azallar to'plami, “Yangi oy” nomli devon, “Shakllar qo'shig'i” dostoningiz nashr etildi. “Muhabbat, o muhabbat!”, “Qaylarga qochay, Laylo” kabi nasriy asarlaringiz va bir qator tarixiy qissalaringiz muxlisrlaringizga taqdim etildi.

– G'azallarda nafis tavsif, maqto'v, lirik qahramonning tashqi qiyofasini mohirona chizib berish hukm suradi. Mening g'azallarim biroq o'zgacha. Bu hayot voqeligining surati va siyrati, ichki paydo bo'lishi alomatidir, deb o'ylayman. Ularda ijtimoiy hayotning turli qirralari, do'stlik, insonparvarlik, kibr-havo, rost va yolg'on, jism va ruh, sevgi olami, falsafiy mushohadalar ustuvor. Mustaqilligimiz



afzalliklarini tarannum etish bilan turli illatlarni ochib tashlamoqchi bo'laman.

Badiiy nasrda yaxshi ijod qilgan shoirlar talaygina. “Meni sev” deb nomlangan kitobimdan bir qator hikoyalar o'rin olgan. Oddiy bayon usulidan, goho falsafiy yoki ramziy usullardan foydalanganman. Tarixiy hikoyalarimda o'tmishga oid aytilmagan, ochilmagan qirralarni topishga harakat qildim. Albatta, uning uchun o'z davrida alomalar yozgan mutafakkirlar asarlarini sinchiklab o'qib ularni solishtirgach xulosalarimni qog'ozga tushirganman. Keyingi yillarda chop etilgan “Xonlar tarixi”, “Navoiy tug'ilgan joy”, “Musulmon sayyohlar”, “Chingizxon ajdodlari”, “Xondamir tarixi”, “Mohlaroyim gullari” kabi qator kitoblarim fikrimning dalilidir.

– “Iblisning qaytishi” deb nomlangan kitobingizda Gyotening “Faust” asaridan ilhomlanganmisiz yoki yangilashdimmi?

– Haq-u nohaqliklarning mavjudligi bizni mulohazalarga chorlaydi. Donishmand Aziziddin Nasafiy “Shayton shayton shaklida bo'lgani uchun iflos va palid emas, balki bo'ysunmaslik, yovuzlik va yomonlikka hidoyat qilinishi uchun yomondir. Bu sifat odamda bo'lsa, odam ham iblis qiyofasida bo'lgani bois unga rahm bo'lmaydi, balki takabburlik, manmanlik va hasad tufayli haydalgandir. Bu sifatlar odamda bo'lsa, odam ham shu sifati tufayli iblisdir” – deb yozadi. Uning fikriga qo'shilmaslikning iloji yo'q. Kitobxon asarni o'qir ekan, o'zidagi va boshqalardagi qusurlarni anglab olishi va mulohaza yuritishiga umid qilaman.

– She'r va g'azallaringizni taniqli xonandalar qo'shiq qilib kuylashgan. Bunga munosabatingiz qanday?

– Albatta ijobiy. Me'yoriga yetkazib ijro etilgan qo'shiq tufayli she'r va g'azallarim xalqimiz yuragidan joy oldi. Mushtariylarga Nuriddin Hamroqulov, Zamira Suyunova, xushovoz xonanda Yahyo Mo'minov kabi O'zbekiston xalq artistlari ijrosidagi “Sandadir”, “Sochlaringda tun uyqusi”, “Oq qush”, “Shirinliging, shakarliging”, “Yor bilan”, “O'shal damlar” kabi qo'shiqlar ayniqsa manzur bo'lmoqda. Lekin shular orasida Yahyobekning “O'shal damlar” qo'shig'i juda maromiga yetkazilgan, desam mubolag'a bo'lmaydi.

O'zDJTU talabasi Asilbek SHIRINBOEV suhbatlashdi

Iqtibos

Roman yozish xuddi quduq qazishga o'xshaydi. Har kuni siz tobora chuqurroqqa sho'ng'iysiz. Eng muhimi to'xtamaslikdir. Agar quduqni bir necha kunga ochiq qoldirsangiz, u qurib qoladi. Ayni avjiga yetgan ilhomni saqlab qolish uchun har kuni ishlashingiz kerak.

Xaruki MURAKAMI



Teatr hech qanday absolyut haqiqatni tan olmaydigan isyonkor san'at. Jahonga mashhur sahna arboblarning kitoblarini mukka tushib o'qisangiz ham qandaydir teatral qolip yoki formulani topish amrimahol. Ba'zan elliginchi yillarning durdona spektakllarini ko'rib, oddiy taassurotdan bo'lak narsa ololmaysiz. Demak, mutlaq haqiqat yo'q, faqat maqsadga eltuvchi yo'llar bor.



Piter BRUK, rejissyor

“Momaqalldiroq ostida”

O'zbekiston
xalq yozuvchisi
Erkin A'zamning
shu nomli
romanini o'qib...



NARGIZA ASADOVA,
Yozuvchilar uyushmasi a'zosi



Mazkur roman Oyravshan ismli qizning murakkab hayoti, iztiroblari, orzu yo'lidagi to'lg'anishlari-yu, achchiq ko'z yoshlari haqida. Bir qaraganda romandagi manzaralar, xarakterlar tanish. Muhabbat va xiyonat, diyonat va razolat to'qnashgan taqdir chorahalari o'quvchiga ayon. Aslida esa unday emas. Chunki har qanday yangi va yaxshi asar kitobxonni o'zga bir manzilga eltadi, yangi bir qismatlar yuzidagi pardani ko'taradi.

Asardagi Oyravshan taqdiri, uning havas yo'lidagi qurbonliklari, umrini goh gul, ba'zan kul qilgan G'ayrat, Iskandar kabi kimsalarning atvori, kechinmalari odamni toliqtirmaydi. Mutolaa chog'ida shoirning “Aybing, onang seni chiroyli tuqqan”, misrasini beixtiyor esladim. Sababi, qizning husn-malohati har qadamida uning xato qilishiga imkon tug'diradi. Biroq kitob sahifalaridan (umr yo'llaridan) goh oq gohi qoramtir ranglarda chiqib keladigan bosh qahramonni yomon ko'rmadim. Negaki, Oyravshan atrofdagilarga qanchalik yengil-yelpi hayot kechiradigan, havaslari yo'lida beqaror ko'rinsada, u o'z “Men”iga xiyonat qilmaydi. Etagiga qo'l uzatganlarni silkib, haddini bildiradi. Pul, mansab, unvonlar va'da qilganlar darajasiga tushmaydi, yaxshisi hammasini yig'ishtirib ortiga qaytishni afzal biladi. Buni G'ayratga xiyonat qilib aldanib qolganida, bir yigitning umrini xazon qilmay, gunohini tan olgan mardligida,

saylov pillapoyalarida do'stdek pinjiga kirgan Xosiyatga o'ziga mos munosabatida ham, tahririyatdagi ustozidan keyin bosh muharrir bo'lib olgan ayolga o'rni bildirib qo'yganida ham ko'rish mumkin.

Rais bobo roman ichida alohida bir mavzu. U qizi Oyravshanning hayotida yagona mard erkak! Iskandar, Mansur, Muzaffarxo'ja singari allakimlar ichida uning ro'yi-raftori, so'zi, nigohi hatto tomoq qirishi ham Oyravshan uchun, uning shikasta qalbi uchun shifo, madad. Hamma foydalanishni istagan, joni faqatgina Rais bobo bilan orom topadi, boladek quvnaydi, ayol sifatida aldamlasligini, tashlab ketilmasligini biladi.

Romanda bosh va yordamchi obrazlar orqali yozuvchi jamiyat portretini turli ranglarda chizishdan, oqni oq, qorani qora deyishdan chekinmaydi. Shoir bo'lishga orzumand qizning shahar hayotidagi olchoq, manfur kimsalarning tuzoqlari, korruptsiyaga botgan, monopoliyaga aylantirib olingan mansab-u lavozimlardagi qing'ir o'yinlarni ro'yirost ochadi.

Qizig'i, asarni o'qish chog'ida ba'zi qahramonlarni tanigandek bo'ldim, shu bois fikr va shukur qildim. Eng muhimi, hamon “Momaqalldiroq ostida” yashayotgan kimsalarning o'ziga va o'zgaga qiladigan har qanday qilmishi bejavob qolmasligini, bu dunyo barmoqdek hisobli ekanligini tag'in esladim...

Ko'rgazma

HASAN ABDUNAZAROV

MUSTAQILLIK XOTIRASI

Toshkent fotosuratlar uyida O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yillik bayramiga bag'ishlangan “Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” ezgu g'oyasini o'zida mujassam etgan “Mustaqillik Xotirasi!” nomli fotoko'rgazma tashkil etildi.

Ekspozitsiyada namoyish etilgan fotosuratlarda mamlakatimizning 1928-yildan to hozirgacha bo'lgan, jumladan mustaqillikning ilk yillarida nishonlangan bayram tadbirlari, sanoatimiz, xorijiy mamlakatlar bilan do'stona aloqalar, ta'lim sohasi, sportchilarning xalqaro musobaqalardagi ishtiroki, hunarmandlarning ish jarayonlari va ishlab chiqarish mahsulotlaridan namunalar hamda yurtimizning diqqatga sazovor tarixiy va me'moriy obidalarini aks ettirgan.

Ko'rgazmada namoyish etilayotgan fotosuratlar O'zbekiston kinofondi foto hujjatlari milliy arxivida saqlanayotgan fotosuratlardan tashkil topgan bo'lib, tashrif buyurayotgan turli kasb egalari, mehmonlar, yoshlarda tarixiy manba sifatida qiziqish uyg'otdi.

“BIZNING MEROS” TURKUMIDAN

O'zbekiston xalq rassomi Ro'zi Choriyev (1931-2004). O'zbekiston badiiy akademiyasi agentligi O'zbekiston badiiy akademiyasining Markaziy ko'rgazmalar zalida R.Choriyevning “Chilonzor qurilishlari”, “O'zbekiston xalq artisti”, “Olim Xo'jayev”, “San'atshunos”, “Mexanizator portreti”, “Surxondaryolik ayol”, “Bog'bon”, “Ayol”, “Kulol”, “Yer fidoyisi”, “Professor Abdulhay Abdullayev”, “Kolxozchi ayol”, “Surxondaryolik kelin”, “Rassom portreti” shuningdek, rassomning hayoti va ijodi bo'yicha o'rin olgan.

Rassom Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida tug'ilgan. Uning ijodida tabiat manzaralari, xalqimizning turmush tarzi va inson ruhiyati, portretlar bo'yicha ko'plab ijodiy ishlar yaratilgan.

Rassom Teshaboy Pirmatovning (1936-2008) O'zbekiston Badiiy akademiyasining markaziy ko'rgazmalar zaliga qo'yilgan “Tong”, “Kuz”, “Mening bolaligim”, “Tog'lar bag'rida tun”, “Hosil”, “Qovunlar”, “Yangi o'zlashtirilgan yerda”, “Pilla hosili”, “Sen yetim emassan”, “Hunarmand ayollar”, “Sug'oruvchi ayol”, “Tashvishli yillar”, “G'alaba” va boshqa ijod namunalari tasviriy san'at muxlislarini bafarq qoldirmaydi.

Rassom o'z asarlarida dehqonlar, oddiy mehnatkashlarning mashaqqatli mehnati hamda tabiat go'zalligini ochib berishi bilan ajralib turadi. U qator ijodiy ishlarida qishloq xo'jaligiga hamda xalqiga e'tiborni ko'ramiz. Butun ijod yo'li o'zi ulg'aygan olamga bo'lgan muhabbati bilan sug'orilgan.

IJTIMOIY TARMOQLAR: MASHHURLIK POYGASI

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan, ular odamlar o'rtasidagi masofani qisqartirib, uzoqdagi yaqinlar bilan tez va oson bog'lanish imkonini bermozda. Ilgari oddiy bir xabarni yetkazish uchun ko'p vaqt talab etilgan bo'lsa, hozir internet orqali kerakli ma'lumotni topish, xabar yuborish, hayotiy lavhalarni ulashish va bilim olish nihoyatda osonlashgan. Ijtimoiy tarmoqlar hayotimizga katta qulaylik olib kirdi, shu bilan bir qatorda yoshlar uchun o'zini namoyon qilish, ijod qilish va yangi bilimlarni o'rganish maydoniga aylandi. Bu platformalarda har kim o'z qiziqishiga mos ma'lumot topa oladi hamda o'z fikrini erkin ifoda etadi. Ko'plab yoshlar o'z iste'dodini aynan shu muhitda kashf etmoqda va bu jarayon ularning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Lekin shu bilan birga, “like”, “obunachi” va “ko'rishlar soni” ortidan quvish kabi holatlar ham keskin kuchayib bormoqda. Afsuski, bu jarayon ba'zan sog'lom fikrlashdan ko'ra, ko'proq e'tibor va mashhurlik orttirish istagiga aylanib ketyapti.

Odamlar o'z sahifasiga joylagan rasm yoki videoning nechta “yoqdi” olganiga tobora ko'proq e'tibor qaratmoqda, bu holat oddiy qiziqishdan odatga, keyinchalik esa ehtiyojga aylanib boradi. Natijada, inson asta-sekin boshqalarning bahosiga qaram bo'lib qoladi. Bugun ko'pchilik o'z postlari orqali boshqalarga yoqishga intiladi va hayotining faqat chiroyli tomonlarini ko'rsatishga harakat qiladi. Natijada, sun'iy hayot tasviri paydo bo'ladi. Unda inson o'zining haqiqiy holatini emas, balki boshqalarga ma'qul bo'ladigan ko'rinishini namoyish etadi. Bunday manzarani kuzatgan foydalanuvchi o'zini boshqalar bilan solishtiradi va o'z hayotidan norozi bo'lib qolishi mumkin. Ayniqsa, yoshlar bu ta'sirni kuchliroq his qiladi, ular hali o'z yo'lini izlayotgan davrda bo'lgani sababli tashqi fikr ular uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

“Like”lar soni orqali o'ziga baho berish odat tusiga kiradi, bu esa o'ziga bo'lgan ishonchni pasaytiradi. Vaqt o'tishi bilan inson o'zligidan uzoqlasha boshlaydi va boshqalarga yoqish istagi uning qarorlariga ta'sir qiladi. So'nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda “profilimga shuncha obunachi kelsa,

FERUZA ASHIROVA, “San'at jurnalistikasi” ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

uyimga qopqoq qoqaman”, “shuncha like olsa mashinamni o'zgartiraman” kabi noodatiy va ko'pincha ma'nosiz chaqiriqlar paydo bo'layotgani kuzatilmoqda. Hatto “qopqoqli uy”, “legoli uy” kabi g'alati g'oyalar ham trendga aylanishga ulgurdi. Aslida bu kabi kontentlar insonning ijodiy fikrini emas, balki faqat e'tibor jalb qilishga qaratilgan yuzaki usullardir. Bu holatning eng katta muammosi shundaki, u yoshlar ongiga noto'g'ri mezonlarni singdiradi. Ya'ni “qadrim like bilan o'lchanadi”, “muvaqqafiyat – obunachi soni bilan belgilanadi” degan xato tushuncha shakllanadi. Vaholanki, ijtimoiy tarmoqlardagi raqamlar insonning haqiqiy qiymatini, bilimini, tarbiyasini yoki kelajagini belgilab bera olmaydi.

Like ortidan quvish ko'pincha sun'iy hayot tarzini yuzaga keltiradi. Inson o'zini emas, boshqalar ko'rishni xohlagan obrazni yashay boshlaydi. Natijada esa ichki bo'shliq, charchoq va ma'nosiz raqobat paydo bo'ladi. Eng achinarlisi shundaki, ba'zi odamlar oddiy e'tibor uchun hatto kulgili yoki inson ongiga salbiy ta'sir qiluvchi g'oyalarni ham ommalashtirishga harakat qilishmoqda. Aslida esa ijtimoiy tarmoqlar bilim olish, fikr almashish, ijod qilish uchun xizmat qilishi kerak. Undan foydalanish madaniyati yetishmasa, bu imkoniyat salbiy tomonga o'zgarishi mumkin. Har bir inson ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda me'yorni saqlashi, “like”lar soniga ortiqcha ahamiyat bermasligi va o'z qadrini ular orqali o'lchamasligi zarur. Insonning haqiqiy qiymati uning tarbiyasi, bilimlari va qilayotgan ishlarida namoyon bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar hayotimizni yengillashtirdi, biroq “like” ortidan quvish kabi odatlar uni murakkablashtiradi. Bu esa insonni asta-sekin o'zligidan uzoqlashtiradi. Eng to'g'ri yo'l esa raqamlar emas, mazmun ortidan quvishdir. Zero, haqiqiy qiymat ekranda emas, insonning o'zida yashiringan.

Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti



Bosh muharrir:

Baxtiyor YAKUBOV

Tahrir hay'ati:

Hamdam ISMOILOV

Oybek DAVLATOV

Doniyor MIRZO

Muharrir:

Dilnoza QURBONOVA

Sahifalovchi:

Abdug'ani SODIQOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,

Mirzo Ulug'bek tumani,

Yalang'och mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (71) 230-28-03.

(71) 230-28-13.

www.dsmi.uz;

nashriyot@dsmi.uz

O'lchami – A3, hajmi 4 bosma taboq.

Gazeta 28.08.2026-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166
raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta elektron ko'rinishda havola etilmoqda